Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

KOREYS TILINI O‘QITISHDA ONLAYN MADANIY ALMASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Yulduzxon G‘ayratovna Ergasheva*
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ eyulduzxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada koreys tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda onlayn madaniy almashuv texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Onlayn madaniy almashuv tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilib, uni tashkil etishning tayyorgarlik, rejalashtirish, amalga oshirish va refleksiya bosqichlari keng va batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar

koreys tili, onlayn madaniy almashuv, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, onlayn ta’lim, Zoom platformasi, xalqaro hamkorlik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743347

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda koreys tilini o‘qitishga muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Umumta’lim maktablarida koreys tili ikkinchi xorijiy til sifatida bosqichma-bosqich joriy etilib, Koreya Respublikasi bilan ta’lim sohasidagi hamkorlik izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, koreyalik mutaxassislarning dars jarayonlariga jalb etilishi, xalqaro hamkorlik loyihalari hamda onlayn madaniy-ta’limiy almashuv dasturlarining yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarning tilni tabiiy kommunikativ muhitda o‘rganishiga keng imkoniyat yaratmoqda.

Koreya va O‘zbekiston maktablari o‘rtasida tashkil etilayotgan onlayn madaniy almashuv darslari o‘quvchilarda koreyalik tengdoshlari bilan bevosita muloqot qilish, ularning turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini bermoqda. Bunday hamkorlik o‘quvchilarning koreys tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda xorijiy tengdoshlari bilan do‘stona munosabatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Onlayn madaniy almashuvning mazmun-mohiyati va pedagogik imkoniyatlarini yoritishdan avval, ushbu tushunchaning mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Zero, onlayn madaniy almashuvning mohiyatini to‘g‘ri anglash uning koreys tilini o‘qitish jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari hamda o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Shu sababli, avvalo, **“onlayn madaniy almashuv”** tushunchasining lug‘aviy va ilmiy mazmuniga to‘xtalib o‘tish lozim.

Onlayn (lotincha onlaynis) — raqamli muhitda amalga oshiriladigan, masofaviy, internet orqali tashkil etiladigan degan ma’nolarni anglatadi.

Madaniy almashuv — turli millat va madaniyat vakillarining o‘zaro til, urf-odat, an'ana, qadriyat, san'at va turmush tarzini o‘rganishi hamda tajriba almashish jarayonidir.

Shunday qilib, onlayn madaniy almashuv lug‘aviy jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet vositalari orqali turli mamlakatlar yoki madaniyat vakillarining til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlarni o‘zaro almashishi hamda muloqot qilishini anglatadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa, onlayn madaniy almashuv — bu Zoom, Google Meet, Microsoft Teams va boshqa onlayn platformalar orqali turli mamlakat o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida tashkil etiladigan hamkorlik faoliyati bo‘lib, u chet tilini o‘rganish bilan birga madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda chet tillarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, onlayn madaniy almashuv texnologiyasi o‘quvchilarning autentik muloqot muhitida ishtirok etishini ta’minlaydigan, ularni turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishga tayyorlaydigan zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Onlayn madaniy almashuv jarayonida o‘quvchilar onlayn platformalar orqali birgalikda loyihalar yaratadi, madaniy mavzularda fikr almashadi, milliy bayramlar, an'analar, taomlar va kundalik hayotga oid ma’lumotlarni o‘zaro taqdim etadi. Natijada ularda chet tilida kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi ham shakllanadi va rivojlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Koreys tilini o‘qitishda onlayn madaniy almashuv texnologiyasidan samarali foydalanish darslarni puxta rejalashtirish va izchil tashkil etishni talab etadi. Mazkur jarayonni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Tayyorgarlik bosqichi. Onlayn madaniy almashuvni samarali tashkil etish, avvalo, puxta tayyorgarlikni talab etadi. Ushbu bosqichda hamkorlik qilinadigan Koreya Respublikasidagi ta’lim muassasasi tanlanadi hamda ikki maktab o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Hamkor guruhlarni shakllantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ta’lim bosqichi, koreys tilini bilish darajasi va qiziqishlari o‘zaro mos bo‘lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning erkin muloqot qilishi va hamkorlik faoliyatida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, darsning maqsadi, mavzusi va kutilayotgan natijalari belgilanadi. O‘quvchilar onlayn muloqot etikasi, onlayn uchrashuv qoidalari hamda madaniyatlararo muloqot tamoyillari bilan tanishtiriladi. Muloqot davomida qo‘llaniladigan lug‘at birliklari va nutq namunalarini oldindan o‘rganish, taqdimotlar va topshiriqlarni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari, internet tarmog‘i, kompyuter, kamera, mikrofon va onlayn platformalarning texnik holati oldindan tekshiriladi.

2. Rejalashtirish va tashkiliy bosqich. Ushbu bosqichda onlayn madaniy almashuv mashg‘ulotining barcha tashkiliy va metodik jihatlari rejalashtiriladi. Avvalo, almashuvda ishtirok etadigan O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘quvchilarining ro‘yxati shakllantiriladi. O‘quvchilarning yoshi, koreys tilini bilish darajasi hamda kommunikativ faolligi inobatga olinib, har bir o‘zbekistonlik o‘quvchiga bitta koreyalik tengdoshi biriktiriladi. Bunday juftliklar (buddy friend (버디 친구)) o‘quvchilarning o‘zaro yaqin muloqot qilishi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi va do‘stona munosabatlarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Shakllantirilgan juftliklar dars boshlanishidan oldin o‘quvchilarga e'lon qilinadi, shuningdek, ular hamkori haqida qisqacha ma’lumot bilan tanishtiriladi.

Keyingi bosqichda mashg‘ulotni o‘tkazish uchun eng ommalashgan va qulay videokonferensiya platformalaridan biri — Zoom tanlanadi. Platformaning texnik imkoniyatlari, jumladan, video va audio aloqa sifati, ekran almashish (Screen Sharing), chat, Breakout Rooms va yozib olish funksiyalaridan samarali foydalanish rejalashtiriladi. Shuningdek, Koreya va O‘zbekiston o‘rtasidagi vaqt farqi hisobga olinib, darsning boshlanish va tugash vaqti ikki tomon uchun ham qulay tarzda belgilanadi. Mashg‘ulotning davomiyligi, maqsadi, mavzusi, ketma-ketligi, qo‘llaniladigan metod va topshiriqlarni o‘z ichiga olgan batafsil dars rejasi ishlab chiqiladi. Bu

esa onlayn madaniy almashuv darslarining tartibli, maqsadga yo‘naltirilgan va samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.

3. Onlayn madaniy almashuvni amalga oshirish bosqichi. Mazkur bosqich onlayn madaniy almashuv texnologiyasining asosiy jarayoni hisoblanadi. Ushbu bosqichda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘quvchilari Zoom platformasi orqali onlayn uchrashuvda ishtirok etadilar hamda bevosita muloqotga kirishadilar. Dastlab, o‘quvchilar o‘zlarini tanishtirish (자기소개) orqali muloqotni boshlaydilar. Ular ism-sharifi, yoshi, sinfi, yashash joyi, oilasi hamda qiziqishlari haqida qisqacha ma’lumot beradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ilk muloqotdagi hayajonini kamaytirish va samimiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘zaro kundalik hayoti va maktab hayoti haqida suhbatlashadilar. Jumladan, maktabdagi fanlar, dars jadvali, sevimli fanlari, maktabdagi to‘garaklar, sinfdan tashqari faoliyat hamda ta’lim tizimiga oid fikrlarini o‘zaro baham ko‘radilar. Bundan tashqari, ular bo‘sh vaqtlarida qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlari, sevimli mashg‘ulotlari (hobby), sport, musiqa, kitob o‘qish yoki boshqa qiziqishlari haqida ham suhbat olib boradilar.

Muloqot yakunida o‘quvchilar keyingi hamkorlikni davom ettirish maqsadida o‘zaro ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari (masalan, Instagram yoki facebook platformalar) bilan almashadilar. Bu esa darsdan tashqari vaqtda ham muloqotni davom ettirish, til amaliyotini kengaytirish, do‘stona munosabatlarni mustahkamlash hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Refleksiya va baholash bosqichi. Onlayn madaniy almashuvning yakuniy bosqichi refleksiya va baholash bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilarning mashg‘ulot davomida erishgan natijalari tahlil qilinadi hamda ularning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining rivojlanish darajasi baholanadi. Mazkur bosqich o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashi hamda keyingi mashg‘ulotlar uchun xulosa chiqarishiga xizmat qiladi.

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilardan o‘z taassurotlari va fikr-mulohazalarini og‘zaki yoki yozma shaklda bayon etish so‘raladi. Ular onlayn uchrashuv davomida nimalarni o‘rganganliklari, koreyalik tengdoshlari haqida qanday yangi ma’lumotlarga ega bo‘lganliklari, muloqot jarayonida uchragan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr bildiradilar. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z hamkori (buddy) bilan muloqot qilish tajribasini baholaydilar hamda kelgusida qaysi mavzular yuzasidan suhbatlashishni istashlarini ifoda etadilar.

Baholash jarayonida o‘quvchilarning koreys tilida muloqot qilish faolligi, nutqning ravonligi, suhbatni davom ettirish qobiliyati, madaniyatlararo muloqot odobiga rioya qilishi, boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat va bag‘rikenglikni namoyon etishi kabi mezonlar inobatga olinadi. Zarur hollarda kuzatuv varaqalari, refleksiya kundaliklari, so‘rovnomalar va o‘zaro baholash usullaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchi onlayn almashuv darsining samaradorligini tahlil qiladi, qo‘llanilgan metod va topshiriqlarning natijadorligini baholaydi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, onlayn madaniy almashuv texnologiyasi koreys tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur texnologiya orqali o‘quvchilar koreyalik tengdoshlari bilan bevosita muloqot qilish, ularning tili, madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada o‘quvchilarda chet tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmalari, madaniyatlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat hamda xalqaro hamkorlik kompetensiyalari shakllanadi.

Maqolada taklif etilgan onlayn madaniy almashuv texnologiyasining tayyorgarlik, rejalashtirish va tashkiliy ishlar, onlayn muloqotni amalga oshirish hamda refleksiya va baholash bosqichlaridan iborat metodik modeli dars jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o‘quvchilarning koreys tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, ularning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, umumta’lim maktablarida koreys tilini o‘qitish jarayoniga onlayn madaniy almashuv texnologiyasini keng joriy etish, Koreya Respublikasidagi ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada rivo-

jlantirish hamda xalqaro onlayn almashuv dasturlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning zamonaviy ta’lim talablari asosida shakllanishi, ularning global fikrlashini rivojlantirish va xalqaro muloqotga tayyor, raqobatbardosh shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–241-son «2022–2026-yillarda xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

3. Byram, M. From Foreign Language Education to Education for Intercultural Citizenship. – Bristol: Multilingual Matters, 2008.

4. Deardorff, D. K. The SAGE Handbook of Intercultural Competence. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2009.

5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

6. O'Dowd, R. Telecollaboration and Onlayn Exchange across Disciplines: In Service of Social Inclusion and Global Citizenship. – Routledge, 2023.

7. O'Dowd, R. Online Intercultural Exchange: Policy, Pedagogy, Practice. – Routledge, 2018.

8. 김중섭. 외국어로서의 한국어교육학. – 서울: 한국문화사, 2015.

9. 국립국어원. 한국어 교육과정. – 서울: 국립국어원, 2020.

10. Ergasheva Yu.G’. ”Koreys tilini o‘qitishda o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasi” // Farg’ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school. – 2026. – № 1. – B. 268–271. https://doi.org/10.5281/zenodo.21201449